

Gulnora Nazarqulova

GulDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi

Talabalarning mustaqil o'rganadigan mavzulari dastur rejasida ko'rsatilgan ma'ro'za, seminar va amaliy mashg'ulotlarni bevosita takrorlamagan holda, alohida ahborot manbalariga asoslanib, har bir mavzuni chuqur o'rganib, tahlil etishga qaratilmog'i lozim.

Uqituvchi talaba tomonidan bajarilayotgan mustaqil ishga aralashmagan holda, faqat yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Jadvalda ko'rsatilganidek, o'qituvchi va talaba munosabatlari "sub'ekt - sub'ekt" munosabatlariga asoslangan bo'lib, mustaqil ta'lim metodikasiga muvofiq reproduktiv darajadagi topshiriqlardan to ijodiy texnologik xarakterdagi topshiriqlar, amaliy ishlar darajasiga olib chiqiladi. Talabadagi oddiy ko'nikmalar barqaror bo'lish va ilmiy-amaliy tafakkur darajasida ifodalanadi.

Tabiiyki, "sub'ekt - sub'ekt" munosabat faol, ijodiy munosabat bo'lib, uning mazmunida interfaol metodlar tatbiqi turadi. Aynan mustaqil ta'limning mazmun-mohiyati ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish, tahlil va tatbiq etishga qaratilgan bo'ladi.

Texnologik yondashuv tatbiqiga muvofiq, mustaqil ta'limda qo'llaniladigan interfaol metod va usullar muayyan samaradorlikka erishishga qaratilmog'i lozim. Shunga ko'ra mustaqil ta'lim texnologiyasi:

- talabaning reproduktiv bilim va ko'nikamikasiga asoslanilgan, ya'ni interfaol metodlarni oldindan o'qib-o'rgangan qoidalar va talablar asosida bajarishga;
- kutilgan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirishga;
- tizimli yondashuv talablariga ko'ra amallarni oddiydan murakkabga tomon ketma-ket va bosqichma bosqich ijro etishga;
- dars loyihasini muayyan algoritm tartibi asosida bajarishga;
- bu jarayondan xato va kamchiliklarni test yordamida to'g'irlab borish asosida o'quv maqsadiga erishishga qaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, reproduktiv bosqichda oldindan bilib olingan qoidalar talaba tomonidan mustaqil ta'lim jarayonida mahsulli bosqichga ko'tarilishi talab etiladi. Talaba dastur talabidagi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtirishga intiladi. Talabaning jarayonidagi faolligi o'zining ijtimoiylashuvini hamda ma'naviy-kasbiy xususiyatlarini belgilaydi (1-2-3 jadvallar).

Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda talaba mustaqil ta'lim talabidan kelib chiqib, biror muammoni echish uchun faol ijodiy izlangan holda, innovatsion bilim va tajribani o'zlashtirishda yangi usullarni topish hamda tashabbus ko'rsatish nazarda tutiladi.

Demak texnologik va tadqiqiy-ijodiy yondashuvning uyg'unligi talabaning mustaqil fikrini, ijodiy qobiliyati hamda oshkorligini ta'min etadi.

Davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan barcha ta'lim dasturlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiqiga asoslangan darslik, o'quv qo'llanmalar, didaktik ishlanmalar, o'quv-biluv majmualar hamda axborot manbalari talabalari integrativ yondashuvlar asosidan faol ijodiy izlanishiga qaratilgan (4-jadval).

Talaba shaxsining ijtimoiy faolligi malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omilidir. Mustaqil ta'lim texnologiyasi mazmunida erkin fikrlash, tashabbuskorlik, mas'uliyatini his etish kabi sifatlar bilan bog'liq faoliyat jarayonida ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tizimi amal qiladi.

Demak, mustaqil ta'lim mazmunida har bir talaba shaxsiga xos erkin fikr uni kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashga, o'z-o'zini tahlil va taftish etishga, o'zining faoliyatiga o'zi baho bera olishga, ya'ni ichki refleksiyaning rivojlanishiga imkon beradi.

Yana shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy faollik shaxsning ot va dunyoqarashining rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy sifatlarining takomillashuvi uning mustaqil kasbiy faoliyati natijasida amalga oshadi.


Ma'lumki, pedagogika fanidan an'anaviy yondashuvga ko'ra talabaning (yoki o'quvchining) "mustaqil ishi" asosan uning uyga berilgan vazifasi hisobidan bajarilar edi. Uyga vazifa asosan o'qib-o'rganib kelish, yozish va ayrish chizishga oid amallarni bajarishdan iborat bo'lib, mavhumlikdan yaqqollikka qarab borilmaydi.

Bu jarayon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar talabiga javob bera olmay qoldi.

Mustaqil ta'lim talabaning amaliy faoliyatida yuqori ko'rsatgichlarga erishishni talab etadi. Albatta bu jarayon talabaning kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan tizimli yondashuvdvn kelib chiqadi.

Tizimli yondashuvda o'ziga xos qoida, printsip va metodlar majmuidan foydalanilib, bo'lajak mutaxassis amaliy faoliyatda kutilgan natijalarga erishish uchun tafakkur operatsiyalarini amalga oshiradi. O'z-o'zini tahlil etadi, induktiv va deduktiv xulosalar chiqaradi.

Mustaqil ta'lim uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi o'laroq, har bir ta'lim turida o'zining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib intensiv ravishda takomillashib boradi. Bu borada fanlararo integrativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.



Mustaqil ta'lim mazmunidan integrativ yondashuv talabani bo'lajak mutaxassis sifatida bir necha fanlarning o'zaro aloqadorligi, shu bilan bog'liq mavzular, muammoli vazifalar, shaxsning o'z qobiliyatini tekshirib ko'rishga va chuqur o'rganish hamda izlanishga undaydi. Aytaylik, birgina pedagogik turkum fanlariga xos integrativ yondashuv takomili falsafa, psixologiya, fiziologiya va informatikaga oid fanlarning uchrashuv nuqtasida o'zining to'laqonli ifodasini topishi mumkin. Bu jarayon mustaqil ta'limni rivojlantiruvchi motivlar tizimi bilan bog'liq.

Jadvalda ko'rsatilganidek asosiy e'tibor mustaqil ta'limga ijtimoiy burch va kasbiy ehtiyojga yo'naltiruvchi motivlar bilan, mustaqil ta'limning uzluksiz ijodiy jarayonga aylantiruvchi motivlar uyg'unligiga qaratilmog'i lozim.